

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB TA'LIM SIFATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

Dadajonova Shoxsanam Xusanboy qizi

Djurayeva Malikaxon Jumaboyevna

Farg'ona tumani, 19-maktab o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarini hozirgi zamon talablari asosida o'qitishda insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, ta'lif sifatini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi haqida taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lif-tarbiya, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, hamkorlikdagi faoliyat, milliy g'urur va vatanparvarlik.*

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lif-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta'lifni an'anaviy usullari o'rnila interfaol usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'lifda o'quvchilarini faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiq etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar o'quvchilarini bilimli, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar bu-jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va o'quvchilarning kichik guruxlarga bo'lib, birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchilarini o'quv jarayonida fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda bajarishi va har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchilarning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilinishi nazarga tutiladi.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to‘xtab qolmaydi, uning g‘ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi, bu albatta tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham biz o‘qituvchilar bu borada ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga keng tadbiq etishimiz darkor. Dars jarayonida o‘quvchilarga ta’lim - tarbiyani bиргаликда olib borish maqsadga muvofikdir.

O‘qituvchi o‘quvchilarni ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta’minlashi zarur.

Biz bilamizki “Pedagogika” ta’lim - tarbiya xaqidagi fan sifatida tarbiyaning moxiyatini tushunishini va uning qonuniyatlarini ochib berishi xamda shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta’sir etishini nazarda tutadi.

Bu albatta ko‘pgina muammolarni xal etishda yaqindan yordam beradi. Ilg‘or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o‘qituvchilarning faoliyatları ham o‘rganib boriladi. Chunki tajribalarni o‘rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki hamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o‘rganish metodlaridan unumli foydalaniladi.

O‘qituvchi-o‘quvchi darsning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlataladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bular, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘qitish jarayonini oldindan loyixalashtirishi zarur, bu jarayonida pedagog o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va extiyojini hamda xamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqazo etadi. Ular juda xilma-xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta’lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Shu bilan bиргаликда aytish lozim-ki, yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlesh shakllanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarni qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisiga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
2. Abdullayev Yo. Qiziqarli statistika.-T.: «Ta’lim nashriyoti» , 2015.
3. www.pedagog.uz